

Xalq cholg'ulariga fortepiano jo'rnavozligining roli va ahamiyati (bolalar musiqa va san'at maktablari misolida)

Nargiza Baxtiyor-qizi Normurodova
Jizzax shahar 2-BMSM

Annotatsiya: Bolalar musiqa va san'at maktablari ta'lim jarayonida alohida pedagogik qiymat kasb etadi. Forteplano jo'rnavozligi dutor, rubob, gijjak, nay va boshqa milliy cholg'ular ijrosini ohangdorlik ritmik barqarorlik va intonatsion aniqlik bilan boyitadi. O'quvchi yakka ijro jarayonida forteplano bilan hamohang harakat qilish orqali eshitish qobiliyatini rivojlantiradi musiqiy tafakkurini kengaytiradi hamda ansambl tuyg'usini shakllantiradi. Forteplano jo'rnavozi ijrochiga sur'atni ushlab turish dinamik tushlarni his qilish va asarning badiiy mazmunini chuqurroq ochib berishda yordam beradi. Ayniqsa bolalar musiqa va san'at maktablarida forteplano jo'rligida mashg'ulot olib borish o'quvchilarning sahna madaniyatini oshiradi ijrochilik ishonchini mustahkamlaydi va milliy cholg'ularni zamonaviy pedagogik yondashuv asosida o'rgatish imkonini yaratadi.

Kalit so'zlar: musiqiy tarbiya, xalq cholg'ulari, forteplano jo'rnavozligi, ijrochilik mahorati, ansambl uyg'unligi, intonatsion aniqlik, ritmik barqarorlik

The role and significance of piano accompaniment to folk instruments (on the example of children's music and art schools)

Nargiza Bakhtiyor-kizi Normurodova
Jizzakh city Children's Music and Art Achool 2

Abstract: Children's music and art schools have a special pedagogical value in the educational process. Piano accompaniment enriches the performance of dutor, rubob, gijjak, nay and other national instruments with melodiousness, rhythmic stability and intonational accuracy. By moving in harmony with the piano during solo performance, the student develops his hearing ability, expands his musical thinking and forms a sense of ensemble. Piano accompaniment helps the performer to maintain the tempo, feel the dynamic nuances and more deeply reveal the artistic content of the work. Especially in children's music and art schools, practicing with piano accompaniment increases students' stage culture, strengthens their performing confidence, and creates an opportunity to teach national instruments based on a modern pedagogical approach.

Keywords: musical education, folk instruments, piano accompaniment, performing skills, ensemble harmony, intonation accuracy, rhythmic stability

Xalq cholg'ulariga fortepiano jo'rnavozligining roli va ahamiyati Bolalar musiqa va san'at maktablari ta'lim tizimida dolzarb ilmiy pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Chunki milliy cholg'ular ijrochiligini o'rgatish jarayonida nafaqat cholg'u texnikasini rivojlantirish balki o'quvchilarning musiqiy tafakkurini shakllantirish ham muhim vazifalardan biri sanaladi. Shu nuqtai nazardan fortepiano jo'rnavozligi xalq cholg'ulari ijrosining badiiy va metodik jihatdan boyishiga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Forteplano cholg'usi o'zining keng diapazoni ko'p ovozlilik imkoniyati va dinamik rang-barangligi bilan xalq cholg'ularining individual tembr xususiyatlarini yanada to'liq ochib berishga yordam beradi. Ayniqsa bolalar musiqa va san'at maktablarida o'quvchilar bilan ishlashda fortepiano jo'rnavozining pedagogik hamkorligi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin egallaydi.

Musiqiy ta'lim tizimida xalq cholg'ularini o'rganish milliy madaniyatni asrab avlodlarga yetkazishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Dutor rubob gijjak nay chang qo'shmay kabi cholg'ular o'zbek xalqining boy musiqiy merosini aks ettiradi. Ushbu cholg'ularni o'rgatishda fortepiano jo'rnavozligi yordamchi vosita sifatida emas balki o'quvchining eshitish qobiliyatini shakllantiruvchi musiqiy tayanch sifatida qaraladi. Chunki fortepiano jo'rligida ijro etilgan mashg'ulotlar o'quvchiga tovush balandligini aniq his qilish ritmik tuzilmani saqlash va musiqiy frazani mazmunli ifodalash imkonini beradi. Natijada ijro sifati va o'quvchining musiqiy dunyoqarashi bosqichma bosqich rivojlanadi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida fortepiano jo'rnavozligi orqali ta'lim berishning yana bir muhim jihati bu o'quvchilarda ansambl hissini rivojlantirishdan iborat. Yakka cholg'u ijrochiligi ko'pincha individual mahoratni talab qilsa fortepiano bilan hamkorlikda ijro etish esa musiqiy muloqot madaniyatini shakllantiradi. O'quvchi fortepiano jo'rligida kuyni tinglash uni his qilish va unga mos ravishda ijro etishni o'rganadi. Bu esa kelajakda sahna faoliyatida yoki ansambl tarkibida ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi. Ayniqsa yosh ijrochilar uchun bunday tajriba ularning sahnada o'zini tutish madaniyatini rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.

Musiqashunoslikda fortepiano jo'rnavozligi masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan kamer ansambl san'ati va pedagogik hamkorlik doirasida o'rganilgan Ammo xalq cholg'ulari bilan fortepiano jo'rnavozligi masalasi ayniqsa bolalar musiqa maktablari misolida hali yetarli darajada ilmiy tahlil qilinmagan. Shu sababli mazkur mavzu ilmiy yangilik kasb etadi. Chunki xalq cholg'ulari ta'limida fortepiano jo'rnavozligining metodik asoslarini o'rganish zamonaviy musiqa pedagogikasi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish o'quvchilarning

musiqiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va samarali ta'lim usullarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Fortepiano jo'rnavozining xalq cholg'ulari bilan ishlash jarayonidagi vazifalari juda keng. U nafaqat asarning garmonik asosini yaratadi balki o'quvchining ijro uslubini yo'naltiradi tempni barqaror ushlab turadi va musiqaning emotsional mazmunini ochishga ko'maklashadi. Fortepiano jo'rnavozi ko'pincha o'qituvchi va ijrochi o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in vazifasini ham bajaradi. Chunki u mashg'ulot davomida o'quvchining kamchiliklarini sezadi va ularni musiqiy yo'l bilan to'g'rilashga yordam beradi. Bu jihatdan fortepiano jo'rnavozligi ijrochilikni shakllantirishning interaktiv usuli sifatida namoyon bo'ladi.

Xalq cholg'ulari bilan fortepiano jo'rnavozligining uyg'unligi estetik tarbiya jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchi milliy cholg'u sadolari bilan Yevropa klassik cholg'usi bo'lgan fortepianoning uyg'unligini his etish orqali musiqiy tafakkur doirasini kengaytiradi. Bu esa unda turli madaniyatlar musiqasini qiyoslash va badiiy idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada o'quvchi nafaqat milliy musiqaga balki umumjahon musiqa merosiga nisbatan ham hurmat va qiziqish bilan qarashni o'rganadi. Bunday integrativ yondashuv zamonaviy musiqa pedagogikasining muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi bugungi kunda Bolalar musiqa va san'at maktablarida ta'lim sifatini oshirish bilan ham bevosita bog'liq. So'nggi yillarda musiqa ta'limida innovatsion metodlarni joriy etish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Shu jarayonda fortepiano jo'rnavozligidan samarali foydalanish o'quvchilarning ijrochilik salohiyatini oshirishga yordam beradi. Chunki fortepiano jo'rnavozligi orqali o'quvchi tovushlar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq anglaydi musiqiy shaklni yaxlit qabul qiladi va asar mazmunini kengroq his etadi. Bu esa ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Mavzuning maqsadi xalq cholg'ulariga fortepiano jo'rnavozligining roli va ahamiyatini ilmiy pedagogik nuqtai nazardan o'rganishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fortepiano jo'rnavozligining nazariy asoslarini tahlil qilish xalq cholg'ulari bilan ishlashdagi metodik xususiyatlarini aniqlash. Bolalar musiqa va san'at maktablarida qo'llanilayotgan amaliy tajribalarni o'rganish hamda samarali tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Tadqiqot davomida fortepiano jo'rnavozligining o'quvchi musiqiy rivojlanishiga ta'siri sahna madaniyati va ijrochilik mahoratiga qo'shadigan hissasi alohida tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotning obyekti. Bolalar musiqa va san'at maktablarida xalq cholg'ularini o'qitish jarayoni hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa xalq cholg'ulariga fortepiano jo'rnavozligining pedagogik va badiiy xususiyatlaridir. Tadqiqot metodlari sifatida musiqiy pedagogik kuzatish taqqoslash tahlil suhbat va amaliy tajriba usullaridan foydalaniladi. Bu metodlar orqali fortepiano jo'rnavozligining

samaradorligi va uning o'quvchilarning musiqiy rivojlanishiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki u xalq cholg'ulari ta'limida fortepiano jo'rnavozligining nazariy va amaliy asoslarini tizimli ravishda yoritishga xizmat qiladi. Amaliy ahamiyati esa tadqiqot natijalaridan. Bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchilari jo'rnavozlari va metodistlari foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi. Ish natijalari xalq cholg'ulari ta'limini takomillashtirish o'quvchilarning ijrochilik mahoratini rivojlantirish hamda musiqiy ta'lim jarayoniga yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishga yordam beradi.

Shunday qilib xalq cholg'ulariga fortepiano jo'rnavozligining roli va ahamiyatini o'rganish milliy musiqa ta'limining rivojlanishi uchun muhim ilmiy amaliy masala hisoblanadi. Forteplano jo'rnavozligi o'quvchining musiqiy eshitish qobiliyati ijro mahorati badiiy tafakkuri va sahna madaniyatini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Shu bois mazkur mavzuni chuqur tadqiq etish zamonaviy musiqa pedagogikasi oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xalq cholg'ulariga fortepiano jo'rnavozligining roli va ahamiyatini chuqur anglash uchun avvalo fortepiano jo'rnavozligining musiqiy ijrochilik jarayonidagi ichki mohiyatini ko'rib chiqish zarur. Forteplano jo'rnavozligi xalq cholg'usi ijrochisiga oddiy hamrohlik emas balki asarning ichki ruhiy mazmunini ochishga xizmat qiladigan badiiy tayanch vazifasini bajaradi. Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'quvchi cholg'uni o'rganishning dastlabki bosqichlaridanoq tovushni to'g'ri eshitish usulni his etish va musiqa matnini ifodali talqin qilishga o'rgatiladi. Shu jarayonda fortepiano jo'rnavozi musiqiy shaklni to'ldirib o'quvchining tinglash qobiliyatini mustahkamlaydi hamda mustaqil ijro ko'nikmasini rivojlantiradi.

Forteplano xalq cholg'ularining tabiiy tembrini boyituvchi cholg'u sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Dutorning mayin ovozi rubobning jarangdorligi gijjakning lirizmi yoki nayning nafis tovushi forteplano jo'rnavozligi orqali yanada to'liq eshitiladi. Chunki forteplano bir vaqtning o'zida garmoniya ritm va melodik yo'nalishni qo'llab quvvatlaydi. Bu esa o'quvchiga o'z ijrosining umumiy musiqiy manzaradagi o'rnini his qilish imkonini beradi. Natijada o'quvchi nafaqat notalarni to'g'ri chalishga balki ularning badiiy mazmunini sezishga ham o'rganadi. Aynan shu jihat forteplano jo'rnavozligining xalq cholg'ulari ta'limidagi asosiy kulminatsion nuqtalaridan biri hisoblanadi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida forteplano jo'rnavozligi ko'pincha pedagogik jarayonning yashirin ammo juda muhim qismi bo'lib qoladi. Ko'plab hollarda e'tibor yakka ijrochiga qaratiladi biroq uning ortida forteplano jo'rnavozining katta mehnati yotadi. Jo'rnavoz o'quvchining nafas olish usulini tempni his qilishini iboralarni tugatish uslubini va musiqaning ichki harakatini boshqarib turadi. U asarni oddiy chalib beruvchi emas balki o'quvchining musiqiy hamkori sifatida ishtirok etadi.

Ayniqsa yosh o'quvchilar bilan ishlashda fortepiano jo'rnavozi ularga ishonch bag'ishlaydi sahna qo'rquvini kamaytiradi va ijro jarayonida ichki tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Fortepiano jo'rnavozligi o'quvchilarda ritmik barqarorlikni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Xalq cholg'ularini o'rganayotgan yosh ijrochilar ko'pincha murakkab usullar va ritmik shakllarni to'g'ri ushlashda qiyinchilikka duch keladilar Fortepiano jo'rnavozi aniq ritmik tayanch berish orqali o'quvchining ichki metroritmik sezgisini rivojlantiradi. Bu ayniqsa maqom yo'llari xalq kuy va murakkab milliy usullarda juda muhim. Chunki milliy musiqada ritm nafaqat tashqi tartib balki badiiy ifoda vositasi ham hisoblanadi. Fortepiano yordamida ritmik tuzilmaning mustahkamlanishi o'quvchining umumiy ijro saviyasini sezilarli darajada oshiradi.

Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish ham fortepiano jo'rnavozligining muhim vazifalaridan biridir. Xalq cholg'ularida o'quvchi ko'pincha monodik chiziqni ijro etadi. Fortepiano esa unga ko'p ovozi fon yaratadi Shu sababli o'quvchi bir vaqtning o'zida o'z partiyasini va jo'rnavoz partiyasini tinglashga o'rganadi. Bu esa polifonik eshitishni shakllantiradi. O'quvchi tovushlar o'rtasidagi munosabatni interval va akkordlarning emotsional ta'sirini sezishni boshlaydi. Natijada uning musiqiy xotirasi ham mustahkamlanadi. Chunki fortepiano bilan ishlash o'quvchining musiqiy fikrlashini bir ovozi idrokdan ko'p qatlamli idrokka olib chiqadi

Fortepiano jo'rnavozligi ijrochining emotsional ifodasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir musiqiy asarda yashirin hissiy qatlam mavjud bo'lib uni tinglovchiga yetkazish ijrochining asosiy vazifasi sanaladi. Yosh o'quvchilar ko'pincha texnik bajarishga e'tibor qaratib asarning emotsional tomonini yetarli his qilolmaydilar. Fortepiano jo'rnavozi dinamika agogika va garmonik ranglar orqali ularga asarning ichki mazmunini his etishga yordam beradi. Masalan lirik kuyda yumshoq akkordlar dramatik asarda esa kuchli garmonik bosim o'quvchining ichki hissiy reaksiyasini faollashtiradi. Shu tariqa fortepiano jo'rnavozligi badiiy talqin madaniyatini shakllantiruvchi vositaga aylanadi.

Sahna amaliyotida fortepiano jo'rnavozligi yanada muhimroq ko'rinish oladi. Konsert yoki imtihon paytida yosh ijrochi hayajon tufayli tempni yo'qotishi matnni unutishi yoki ifodani pasaytirishi mumkin. Fortepiano jo'rnavozi bunday holatda musiqiy tayanch sifatida ijroni boshqaradi. U zarur paytda tempni tiklaydi frazani davom ettiradi va o'quvchining xatolarini nozik tarzda yashiradi. Bu nafaqat ijro sifati balki o'quvchining ruhiy barqarorligi uchun ham muhim. Jo'rnavoz bilan ishonchli hamkorlikka ega bo'lgan o'quvchi sahnada o'zini erkinroq his qiladi va badiiy jihatdan to'liqroq namoyon bo'ladi.

Fortepiano jo'rnavozining xalq cholg'ulari bilan ishlashdagi professional tayyorgarligi ham alohida e'tiborga loyiq. Har bir milliy cholg'uning o'ziga xos ijro usuli diapazoni va nafas xususiyati mavjud. Fortepiano jo'rnavozi bularni chuqur

bilishi kerak. Masalan nay bilan ishlashda nafasli iboralarni sezish gijjak bilan ishlashda cho‘zilma tovushlarni qo‘llab quvvatlash dutor bilan ishlashda esa mayin ritmik hamrohlik yaratish talab etiladi. Shuning uchun fortepiano jo‘rnavozi oddiy pianist emas balki milliy cholg‘ular estetikasi va pedagogikasini tushunadigan mutaxassis bo‘lishi zarur. Bu esa jo‘rnavoqlikni mustaqil ilmiy amaliy yo‘nalish sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Ta‘lim jarayonida fortepiano jo‘rnavoqligi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi vositachi sifatida ham namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi texnik ko‘rsatmalar beradi jo‘rnavoz esa ularni amalda musiqiy shaklga aylantiradi. O‘quvchi nazariy tushunchani fortepiano jo‘rligida tezroq his etadi. Chunki musiqa orqali tushuntirilgan fikr so‘z orqali berilgan izohga qaraganda ko‘proq ta‘sir qiladi Bu ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular eshitish orqali tezroq o‘rganadilar. Shu sababli fortepiano jo‘rnavoqligi ta‘lim samaradorligini oshiruvchi interaktiv pedagogik mexanizm hisoblanadi.

Milliy va jahon musiqa madaniyatining uyg‘unlashuvi nuqtai nazaridan ham fortepiano jo‘rnavoqligi muhim ahamiyatga ega. Forteplano g‘arb musiqasining universal cholg‘usi bo‘lsa xalq cholg‘ulari milliy an‘analarni ifodalaydi. Ularning birgalikdagi ijrosi o‘quvchida madaniy sintez tushunchasini shakllantiradi. Bu orqali yosh ijrochi milliy musiqani zamonaviy talqinda ko‘ra boshlaydi va uning xalqaro san‘at makonidagi o‘rnini anglaydi. Aynan shu uyg‘unlik bugungi globallashuv sharoitida musiqa ta‘limining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Forteplano jo‘rnavoqligi orqali repertuar tanlash imkoniyatlari ham kengayadi Ko‘plab xalq cholg‘ulari uchun moslashtirilgan asarlar forteplano jo‘rligida ijro etiladi. Bu o‘quvchining repertuarini boyitadi turli uslublarni o‘rganishga imkon beradi va ijrochilik salohiyatini rivojlantiradi. Jo‘rnavoqliksiz ayrim asarlar o‘zining badiiy to‘liqligini yo‘qotishi mumkin. Shu sababli forteplano jo‘rnavoqligi nafaqat metodik balki repertuar siyosati nuqtai nazaridan ham muhim omil hisoblanadi.

Psixologik jihatdan forteplano jo‘rnavoqligi yosh ijrochining ichki ishonchini shakllantiradi O‘quvchi yolg‘iz ijro etayotganida o‘zini himoyasiz his qilishi mumkin. Ammo forteplano bilan hamkorlik unga musiqiy tayanch beradi U o‘zini musiqiy dialog ichida sezadi va bu ichki qo‘rquvni kamaytiradi. Ayniqsa ilk sahna tajribalarida bu juda muhim. Chunki muvaffaqiyatli sahna chiqishi kelajakdagi ijodiy faoliyatga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Forteplano jo‘rnavoziining nozik psixologik yordami ko‘pincha o‘quvchining san‘atga bo‘lgan munosabatini ijobiy shakllantiradi.

Shu tariqa forteplano jo‘rnavoqligi xalq cholg‘ulari ta‘limida oddiy hamrohlik emas balki murakkab pedagogik badiiy va psixologik tizim ekanligi namoyon bo‘ladi. U o‘quvchining musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantiradi ritmik sezgisini mustahkamlaydi badiiy tafakkurini boyitadi sahna madaniyatini shakllantiradi va milliy cholg‘ular ijrosining estetik salohiyatini ochib beradi. Aynan mana shu omillar

fortepiano jo'navozligining. Bolalar musiqa va san'at maktablaridagi ta'lim jarayonida beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xalq cholg'ulariga fortepiano jo'navozligining roli va ahamiyati Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatida ko'p qirrali pedagogik va badiiy mazmun kasb etadi. Mazkur tadqiqot davomida aniqlanganki fortepiano jo'navozligi xalq cholg'ulari ijrochiligini shakllantirish jarayonida oddiy hamrohlik vazifasini emas balki musiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi murakkab ta'limiy tizim vazifasini bajaradi. O'quvchi fortepiano jo'rligida nafaqat asarni texnik jihatdan to'g'ri ijro etishni balki uning badiiy mohiyatini anglashni ham o'rganadi. Bu esa xalq cholg'ulari ta'limining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Forteplano jo'navozligi yosh ijrochining individual mahoratini shakllantirish bilan birga uning umumiy musiqiy dunyoqarashini ham kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki fortepiano jo'navozligi o'quvchilarning eshitish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Xalq cholg'ularida bir ovozli kuylar ustida ishlash jarayonida fortepiano ko'p ovozli tayanch yaratib beradi. Shu sababli o'quvchi o'z partiyasini umumiy garmonik tuzilma ichida tinglashga odatlanadi. Bu esa uning musiqiy eshitish doirasini kengaytiradi interval va akkordlarni farqlash qobiliyatini mustahkamlaydi hamda ichki eshitish xotirasini shakllantiradi. Ayniqsa yosh ijrochilar uchun bunday ko'nikma keyingi professional rivojlanishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Forteplano jo'navozligi orqali o'quvchi tovushlarni nafaqat eshitadi balki ularni ongli ravishda tahlil qilishni ham o'rganadi.

Fortepiano jo'navozligining yana bir muhim jihati ritmik barqarorlikni shakllantirishda namoyon bo'ladi. Xalq cholg'ulari ijrosida usul va ritmning to'g'ri saqlanishi asarning badiiy ifodasi uchun asosiy omillardan biridir. Forteplano jo'navozi aniq metroritmik tayanch yaratib o'quvchining ichki ritm hissini rivojlantiradi. Natijada o'quvchi murakkab ritmik tuzilmalarni aniq his qilishga va ularni ishonch bilan ijro etishga o'rganadi. Bu ayniqsa maqom yo'llari xalq kuy va zamonaviy qayta ishlangan asarlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Ritmik barqarorlik esa o'z navbatida ijro madaniyati va sahna ishonchining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida fortepiano jo'navozligi o'quvchilarning emotsional ifoda imkoniyatlarini ham boyitishi aniqlandi. Yosh ijrochilar ko'pincha asarning texnik tomoniga e'tibor qaratib uning ichki hissiy mazmunini to'liq anglamasligi mumkin. Forteplano esa garmonik ranglar dinamika va musiqiy harakat orqali asarning emotsional yo'nalishini ochib beradi. Bu esa o'quvchiga kuy ruhiyatini chuqurroq his qilish imkonini yaratadi. Natijada ijro quruq texnik mashqdan badiiy talqinga aylanadi. Aynan shu jihat forteplano jo'navozligini musiqa ta'limida estetik tarbiya vositasi sifatida ko'rsatadi.

Bolalar musiqa va san'at maktablari amaliyoti shuni ko'rsatadiki fortepiano jo'rnavozligi sahna tajribasini shakllantirishda ham alohida o'rin egallaydi. O'quvchi fortepiano jo'rligida sahnaga chiqqanda o'zini musiqiy jihatdan himoyalangan his qiladi. Jo'rnavoz o'quvchiga ichki tayanch beradi va uning hayajonini kamaytiradi. Ayniqsa birinchi konsert chiqishlarida bu omil nihoyatda muhim. Chunki sahnadagi muvaffaqiyatli ijro o'quvchining keyingi ijodiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Forteplano jo'rnavozining nozik sezgirligi va tajribasi tufayli o'quvchi o'zini erkinroq namoyon etadi. Bu esa musiqiy ta'limning psixologik samaradorligini oshiradi.

Forteplano jo'rnavozining professional tayyorgarligi ham mazkur tadqiqotda muhim xulosa sifatida namoyon bo'ldi. Har bir xalq cholg'usining tembr diapazon nafas va texnik imkoniyatlari turlicha bo'lgani sababli jo'rnavoz ularning xususiyatlarini chuqur bilishi zarur. Jo'rnavoz faqat pianino chaluvchi emas balki ijrochi bilan birga nafas oluvchi musiqiy hamkor bo'lishi kerak. U cholg'uning imkoniyatlariga mos dinamika tanlaydi tempni boshqaradi va asarning badiiy rivojini qo'llab quvvatlaydi. Shu sababli forteplano jo'rnavozlarini tayyorlash jarayonida xalq cholg'ulari xususiyatlarini o'rgatish alohida metodik yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat forteplano jo'rnavozligining milliy va jahon musiqa madaniyati o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajarishidir. Forteplano g'arb musiqa madaniyatining universal cholg'usi bo'lsa xalq cholg'ulari milliy musiqaning ifodachisidir. Ularning uyg'unligi o'quvchida madaniy tafakkurni rivojlantiradi. Yosh ijrochi milliy kuylarni forteplano bilan ijro etish orqali ularning zamonaviy talqinini his qiladi va musiqiy dunyoqarashini kengaytiradi. Bu esa ta'lim jarayonida integrativ yondashuvni kuchaytiradi hamda milliy merosni yangi avlodga zamonaviy shaklda yetkazish imkonini beradi.

Forteplano jo'rnavozligi ta'lim samaradorligini oshirishda metodik vosita sifatida ham muhimdir. O'quvchi ko'pincha nazariy tushunchalarni amaliyotda his qilish orqali tezroq o'zlashtiradi. Forteplano jo'rnavozi temp dinamika frazlash va artikulyatsiyani jonli ko'rsatib berish orqali murakkab musiqiy tushunchalarni sodda shaklda yetkazadi. Bu ayniqsa kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda samarali. Chunki bolalar eshitish va taqlid orqali tezroq o'rganadilar. Shuning uchun forteplano jo'rnavozligi musiqiy ta'limning interaktiv usullaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra Bolalar musiqa va san'at maktablarida forteplano jo'rnavozligi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha bir qator tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Avvalo forteplano jo'rnavozlari uchun xalq cholg'ulari bilan ishlash metodikasiga bag'ishlangan maxsus seminar va malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish zarur. Ikkinchidan xalq cholg'ulari uchun forteplano jo'rligida ijro etiladigan repertuarlarni kengaytirish lozim. Uchinchidan ta'lim jarayonida jo'rnavoz va o'qituvchi hamkorligini tizimli ravishda yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan o'quvchilarning sahna tayyorgarligida forteplano jo'rnavozligi bilan

muntazam mashg'ulotlar tashkil etish lozim Bu tavsiyalar ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek fortepiano jo'rnavozligining ilmiy jihatdan chuqurroq o'rganilishi kelajak tadqiqotlari uchun ham muhim yo'nalish bo'lib qoladi. Xususan uning psixologik ta'siri musiqiy eshitishga ta'siri va sahna faoliyatidagi roli bo'yicha eksperimental tadqiqotlar o'tkazish mumkin. Bu esa musiqa pedagogikasida yangi ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan fortepiano jo'rnavozligini birlashtirish masalasi istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin. Chunki yangi texnologiyalar orqali jo'rnavozlik imkoniyatlarini yanada boyitish va o'quvchilar uchun qulay o'quv muhiti yaratish mumkin.

Umuman olganda xalq cholg'ulariga fortepiano jo'rnavozligining roli va ahamiyati. Bolalar musiqa va san'at maktablari ta'limida beqiyos ekanligi tasdiqlandi. Forteplano jo'rnavozligi o'quvchining eshitish qobiliyati ritmik sezgisi emotsional ifodasi sahna madaniyati va ijrochilik mahoratini rivojlantiradi. Shu bilan birga u milliy cholg'ularning badiiy imkoniyatlarini to'liq namoyon etishga yordam beradi. Natijada fortepiano jo'rnavozligi xalq cholg'ulari ta'limining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Uning ilmiy metodik va amaliy asoslarini yanada rivojlantirish esa zamonaviy musiqa ta'limining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qoladi

Shunday qilib mazkur tadqiqot natijalari xalq cholg'ulari ta'limida fortepiano jo'rnavozligining o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar nafaqat pedagogik amaliyot uchun balki milliy musiqa madaniyatining kelajak taraqqiyoti uchun ham muhimdir. Forteplano jo'rnavozligi orqali yosh avlodning musiqiy didini shakllantirish milliy san'atga hurmatni oshirish va ijodiy salohiyatni rivojlantirish mumkin. Shu sababli fortepiano jo'rnavozligi xalq cholg'ulari bilan ishlashda nafaqat texnik vosita balki musiqiy tarbiyaning chuqur ma'naviy omili sifatida qadrlanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidiy, Said Boltazoda. Влияние музыки на человека. Academy 4 (4), 63-65
2. Saidiy, Said Boltazoda. Теория магнитных эффектов других голосов многоголосной музыки. Science and Education 4 (1), 577-582
3. Саидий Саид Болта-Зода (2023). Модуляционные эффекты музыкального произведения. Science and Education, 4 (1), 563-569.
4. Саидий Саид Болта-Зода (2023). Особенности эффекта системы тяготения аккордов в музыке. Science and Education, 4 (1), 590-596.
5. Саидий Саид Болта-Зода (2023). Взаимное влияние тоники, субдоминанты и доминанты. Science and Education, 4 (1), 570-576.

6. Болта-Зода, С. С. (2022). Особенность мгновенного появления вторичного аккорда, органнй пункт. *Science and Education*, 3(12), 885-891.
7. Расулова, Д. Ш. К., & Болтазода, С. С. (2022). Национальные инструменты Узбекистана. История музыкальных инструментов: дутар и уд. *Science and Education*, 3(3), 858-864.
8. Салимова, Б. Б. К., & Болтазода, С. С. (2022). Музыка как дискурс управления многоголосной музыки. *Science and Education*, 3(3), 845-850.
9. Халимов, Ш. Ш. Ё., & Болтазода, С. С. (2022). Некоторые аспекты формирования и развития музыкального воздействий с ее последствиями на развитии ребёнка. *Science and Education*, 3(3), 837-844.
10. Болта-Зода, С. С. (2022). Взаимодействие теории и гармонии музыки. *Science and Education*, 3(12), 851-856.
11. Саидий Саид Болта-Зода (2023). Влияние внутри тяготеющих звуков аккорда. *Science and Education*, 4 (1), 583-589.
12. Саидий Саид Болта-Зода (2023). Эффекты модуляции и отклонении музыки. *Science and Education*, 4 (1), 550-555.
13. Болта-Зода, С. С. (2022). Теоретические основы построения музыки. *Science and Education*, 3(12), 844-850.
14. Ропиева, Д. А. К., & Болтазода, С. С. (2022). Вокально-хоровые песни, обработка народных песен и развития мастерства учащихся. *Science and Education*, 3(4), 1200-1205.
15. Болтазода, С. С. (2022). Оценка характеристик волнообразных голосов в хоровом пении. *Science and Education*, 3(3), 865-871.
16. Саидий, С. (2019). Влияние музыки на личность и психику ребёнка. *Вестник интегративной психологии*, (19), 217-220.
17. Болта-Зода, С. С. (2022). Полифонический кондукт к строфической форме в музыке. *Science and Education*, 3(12), 837-843.
18. Саидий, С. Б. Продвижение новых принципов творческого фортепианного исполнительства в профильных школах искусств и культуры. *Science and education. Scientific Journal*, 4(3), 1612-1617.
19. Ропиева, Д. А. К., & Болтазода, С. С. (2022). Технологии формирования и развития вокально-хорового мастерства учащихся через народные песни. *Science and Education*, 3(3), 831-836.
20. Рустамов, А. Р. О., & Болтазода, С. С. (2022). Способы обогащения уроков игры на фортепиано передовым зарубежным опытом. *Science and Education*, 3(3), 904-910.
21. Кувватова, Н. Б. К., & Саидий, С. Б. З. (2022). Основные направления и тенденции развития будущих учителей по направлению музыки. *Science and Education*, 3(8), 204-210.

22. Мухаммадиева, Р. У., & Болтазода, С. С. (2022). Основы современного педагогического творчества по сфере хора. Дирижёр как оптимально управляющий голосом хора в музыкальном театре. *Science and Education*, 3(3), 918-923.

23. Комил Бурунович Холиков (2024). Вспомогательные клетки нервной ткани и действия периферических нервов в Шванновском клетке. *Science and Education*, 5 (12), 99-104.

24. Комил Бурунович Холиков (2024). Специальные приёмы обучение изучения обмена калия и натрия в пороге мембраны Шванье. *Science and Education*, 5 (12), 69-74.

25. Комил Бурунович Холиков (2025). Поликомилоиды генератор музыкального воспроизводимости пианиста в психофизиологии. *Science and Education*, 6 (1), 134-141.

26. Болта-Зода, С. С. (2022). Определения понятий диктанта в теории музыки. *Science and Education*, 3(12), 823-828.

27. Алиев, Б. Т. У., & Саидий, С. Б. (2022). Простые, сложные и смешанные размеры музыки при проведении уроков дирижирования, креативные методы обучения. *Science and Education*, 3(5), 1484-1492.

28. Рустамов, А. Р. О., & Болтазода, С. С. (2022). Методы и приёмы обучения игры на фортепиано. *Science and Education*, 3(3), 911-917.

29. Наргиза Бахтиёр Қизи Қувватова, & Саидий Саид Болтазода (2023). Современные методы работы с детьми, не имеющими музыкального образования. *Science and Education*, 4 (2), 1248-1255.

30. Эрназарова, А. Ф. Қ., & Саидий, С. Б. (2022). Методики обучения народным музыкальным ладам учащихся музыкальных школах и школ искусств. *Science and Education*, 3(11), 1021-1026.